

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
395 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolibboyev Samad Tolibboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlar.....	177
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Немаджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni	322
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish	327
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari	335
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Turizmida transport logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	340
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Sayohatchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish: raqamli xavfsizlik va qonunchilik o'zaro ta'siri	345
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Yangi konstruktiviy aylanuvchi stolga ega tikuv mashinasida tajribalar tahlili	351
Amonov Abdurahmon Rafiq o'g'li, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi	356
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
Пути обеспечения инклюзивного роста республики узбекистан	363
Аскарова Мавлуда Турабовна	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili	372
Baxriddinov Sharofiddin	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini tashkil etish uslubiyatining o'ziga xos xususiyatlari	382
Urazaliev Kamoliddin Tajikulovich	
Oliy ta'lim muassasalarida budget mablag'laridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslari.....	389
Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: sanjarmurtozayev1591@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida budget mablag'laridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Budget mablag'larini boshqarishning nazariy asoslari, ularning ta'lim sifatiga ta'siri hamda amaliy qo'llash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha ilg'or tajribalar va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, budget mablag'lari, samaradorlik, boshqaruv, ta'lim sifati, moliyaviy resurslar, innovatsion yondashuv.

Abstract: This article examines the issues of effective use of budget funds in higher education institutions. It analyzes the theoretical foundations of budget management, its impact on the quality of education, and practical implementation mechanisms. The paper also presents best practices and recommendations for improving the efficiency of fund utilization.

Key words: higher education institutions, budget funds, efficiency, management, quality of education, financial resources, innovative approach.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования бюджетных средств в высших учебных заведениях. Проанализированы теоретические основы управления бюджетными ресурсами, их влияние на качество образования, а также механизмы практического применения. Приведены передовой опыт и предложения по повышению эффективности использования средств. Анализируются действующее законодательство, существующие проблемы и предложения по их решению.

Ключевые слова: ключевые слова: высшие учебные заведения, бюджетные средства, эффективность, управление, качество образования, финансовые ресурсы, инновационный подход.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati, eng avvalo, iqtisodiy hamda moliyaviy organlar faoliyati samaradorligiga bog'liq.

Mustaqillik yillarida budget ijrosini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda sezilarli natijalarga erishildi. G'azna ijrosi tizimi joriy etilib, budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ta'minlandi. 2024-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomada ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash, oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

2019-yilgi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va 2023–2025-yillardagi normativ hujjatlar budget jarayonining shaffofligi, xarajatlar samaradorligi hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Hurmatli Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'z asarlarida: "Biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi" (Sh. M. Mirziyoyev, 2016) — deb ta'kidlaganlari ijtimoiy soha obyektlari iqtisodiyotimizda naqadar muhim o'rin tutishini anglatib turibdi. Ijtimoiy soha obyektlari asosan davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hisoblanadi.

"Davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini, turmush darajasini ko'tarishga mo'ljallangan, ijtimoiy vazifalarni bajarishga ajratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga qaratilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Bular umumdavlat xarajatlari hisoblanib, davlat budjeti orqali moliyalashtiriladi" (E. T. Odilov, 2012, 11-bet).

Harakatlar strategiyasidagi oliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida barcha sohalarga qaratilayotgan e'tibor singari ta'lim tizimiga, jumladan, oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Moliya tizimining samarali faoliyat yuritishida davlat budjeti hamda moliyaviy nazorat muhim hisoblanib, unga mamlakatimizning etuk iqtisodchi, nazariyotchi olimlari — iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh. Sh. Shodmonov hamda iqtisodiyot fanlari doktori, professor T. Jo'raev tomonidan shunday ta'rif berilgan: "Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat budjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat budjeti — davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash mablag'larining yillik rejasidir" (Sh. Shodmonov va T. Jo'raev, 2002, 324-bet) — deb izoh berishgan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor M. M. To'laxodjaeva esa o'zining ilmiy ishlarida davlat moliya tizimida quyidagi ilmiy fikrni bildirgan: "Moliyaviy nazorat — bu bajarishning kutilgan natijalarini belgilash, tahlil qilish, o'lchash yo'li bilan olingan ma'lumotlarni baholash va o'zgartiruvchi ta'sir yoki harakatlarni ishlab chiqish jarayonida bir butun bo'lib harakatlanuvchi nazorat subyektlari, obyektlari, shakllari, turlari, metodlari hamda vositalari yig'indisidir" (M. To'laxodjaeva, 1998, 7-bet).

Xorijiy davlat olimlaridan esa professor Anvar Shah davlat budjeti haqida quyidagi ta'rifni bergan: "Davlat budjeti bu — hukumat tomonidan belgilangan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni uzluksiz hisobda qayd etib borishdir. Bu belgilangan davr mobaynida davlat tegishli faoliyat turlarini qachon va qanday qilib moliyalashtirish maqsadini anglatadi" (A. Shah, 2007, 29-bet).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida budjet mablag'laridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslari o'rganildi: tahliliy (analitik) metod, solishtirma (komparativ) tahlil, me'yoriy-huquqiy tahlil, deskriptiv yondashuv qo'llanildi hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat sektori tuzilmasi ko'p tarmoqli bo'lib, unda budjet tashkilotlari alohida o'ringa ega. Budjet tashkilotlari asosan davlatning aniq bir funksiyasini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda budjet mablag'lari hisobiga saqlab turiladigan (sog'liqni saqlash, ta'lim, huquqni muhofaza qiluvchi hamda qoidabuzarlik va jinoyatlarga qarshi kurashuvchi organlar, mudofaa sohasi va uning tizimidagi tashkilotlar va boshqa ko'plab ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan) institusional birliklardir.

Budjet tashkilotlari davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar, o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan hamda faoliyat turiga mos ish va xizmatlar ko'rsatishdan, xomiylik, vaqtinchalik bo'sh bino va inshootlarni ijaraga berishdan, shuningdek boshqa qonunchilik bilan taqiqlanmagan budjetdan tashqari mablag'lar tushumlari hisobiga o'z faoliyatini mablag' bilan ta'minlaydi va ular hisobidan belgilangan tartibda xarajatlar amalga oshiriladi.



Shuningdek, qonunchilikka ko'ra: "Davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan mablag'lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxs budjet mablag'lari oluvchidir. Budjet mablag'larini oluvchi budjet tashkiloti maqomiga ega bo'la olmaydi. Budjet mablag'lari oluvchini Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish shartlari budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi" — deb ta'kidlangan.

O'z navbatida aytish mumkinki, tashkilot ixtiyoridagi mablag'lar, xo'jalik jarayonlari va ularning ta'siri ostidagi tashkilot mablag'lari va mablag' manbalarining tarkibi, tuzilishi va harakatini o'z vaqtida kuzatib borish bevosita buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Buxgalteriya hisobi xo'jalik jarayonlari uzluksizligini ta'minlashda zaruriy axborotlarni to'plash uchun eng asosiy omillardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida: "Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umimlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir. Buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtda va o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi" — deb keltirilgan (2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son).

Bevosita tadqiqotimiz predmetiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" jumlasiga aniq ta'rif keltirilmagan. Ammo, kodeks matnlarida "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" jumalaridan foydalanilgan. Shu sababli ham hanuzgacha ushbu tushunchani iqtisodchilar turlicha talqin qilib kelmoqdalar.

Qonun va qonunosti hujjatlarda, shuningdek mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlari tomonidan "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" jumlasiga nisbatan berilgan ta'riflarni o'rganib chiqdik. Mamlakatimiz olimlaridan iqtisodiyot fanlari doktori, professor S. U. Mehmonov: "Hozirgi kunda budjet tizimi tarkibi bo'lgan budjet tashkilotlari hisobini budjet hisobi deb yuritilishi buxgalteriya hisobi qonunchilik hujjatlarida ham belgilab berilgan" (S. U. Mehmonov, 2016, 18-bet) — deb ta'kidlagan, ammo qaysi jumladan foydalanish maqsadga muvofiqligi borasida aniq bir ilmiy qarashni ilgari surmagan.

Shuningdek, xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlaridan T. G. Sheshukova "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" va "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" jumlariga nisbatan o'zining ilmiy talqinlarini keltirgan. Olimning fikricha, "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" deb emas, balki "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" deb talqin qilinishi maqsadga muvofiq, chunki bu bevosita budjet ijrosi jarayonlari bilan bog'liqdir. U byudjet ijrosi jarayonlarida budjet tasnifining hisobda qo'llanilishi bilan bu fikrni izohlagan (T. G. Sheshukova, 2011, 14-bet). Shuningdek, budjet hisobi va buxgalteriya hisobi tushunchalarining qo'llanilishi hisobni yuritish xususiyatlarida ma'lum farqlanishlar mavjudligini ham ta'kidlagan.

Olimlarning ilmiy qarashlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarni ilmiy jihatdan o'rganib chiqqan holda "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" emas, aksincha "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" deb talqin etish o'rinni degan xulosaga keldik. Ushbu yondashuvni ilmiy hamda amaliy jihatdan quyidagicha asoslash mumkin.

Birinchidan, milliy qonunchiligimizga ko'ra, budjet tashkilotlari davlat budjetidan moliyalashtirilganligi sababli "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" jumlasidan foydalanilayotgan bo'lsa-da, aslida budjet tashkilotlarida nafaqat budjet mablag'laridan foydalaniladi, balki faoliyat turiga xos bo'lgan turli yo'nalishlardan ham tadbirkorlik asosida hisob-raqamlarga kelib tushadigan mablag'lar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, davlat budjetiga qaramlikni kamaytirib, o'z-o'zini moliyaviy jihatdan ta'minlashga intilish, ya'ni xo'jalik yuritishni anglatadi.

Ikkinchidan, birinchi ilmiy xulosadan kelib chiqib, budjet tashkilotlari aslida boshqa (ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish) korxonalar kabi "xo'jalik yurituvchi subyekt" bo'lib hisoblanadi. Ularning asosiy farqli jihatlari shundaki, moliyalashtirish manbasi davlat budjeti hisoblanadi, ular ustav fondiga ega emas va budjet qonunchiligiga bo'ysunadi.

Uchinchidan, "Budjet hisobi" asosan davlat budjetini ijro etuvchi moliya organlari va ularning hududiy boshqarmalarida, shuningdek g'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida yuritiladi.

Chunki moliya organlari asosan davlat budjetining daromadlarini shakllantirish, xarajatlarni sarflash va boshqa budjet ijrosiga oid operatsiyalarni amalga oshiradi. Ular hisob yuritishda faqat “Kassa” usulidan foydalanadi. Shu sababli, moliya organlarining hisob yuritish jarayonlarini umumlashtirgan holda “Budjet hisobi” deb nomlash o‘rinlidir. Ammo budjet tashkilotlarining faoliyati va funksiyalari moliya organlarinikidan tubdan farq qiladi.

To‘rtinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda daromad va xarajatlarni tan olishda faqat “Hisoblash” usuli qo‘llanilsa, budjet tashkilotlarida nafaqat “Kassa” usuli, balki xo‘jalik yurituvchi subyektlar kabi “Hisoblash” usuli ham qo‘llaniladi.

Beshinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarda ham “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” jumlasini keng qo‘llanilib kelmoqda. Jumladan, Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma mavjud.

Yuqorida keltirilgan ilmiy va nazariy asoslardan kelib chiqib, aytish mumkinki, “Budjet tashkilotlarida budjet hisobi” tushunchasi budjet tashkilotlarida amalga oshiriladigan xo‘jalik jarayonlarida hisob tizimi mazmunini to‘liq aks ettirmaydi. Aksincha, “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” tushunchasi mohiyati jihatidan kengroq va o‘rinli hisoblanadi.

Bundan tashqari, budjet ijrosiga oid qonunchilik asoslarini hamda tadqiqot mavzusiga oid mamlakatimiz olimlarining ilmiy asarlarini o‘rganganimizda, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining mazmunini yoritib beradigan aniq va to‘liq ta’rif keltirilmaganligini ko‘rdik. Shu sababli, ilmiy izlanishlar natijasidagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

“Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi – tashkilotga daromadlar va xarajatlar smetalari doirasida ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hamda ularning tashkil topish manbalarining harakati va holatini o‘rganish, nazorat qilish, boshqarish maqsadida budjet ijrosiga oid axborotlarni shakllantirish tizimidir.”

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish joizki, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda oliy ta’lim muassasalarida davlat moliyaviy nazorati tizimini ham jahon standartlariga mos ravishda shakllantirish va uni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish Respublikamiz iqtisodiy rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Barcha budjet hisobi moliyaviy operatsiyalari informatsion texnologiyalar va maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar orqali elektron tarzda amalga oshirilayotganini inobatga olib, davlat budjeti mablag‘larini hisob-kitobi bilan bog‘liq dasturiy majmualarni nazorat qilish auditi sho‘basini tashkil etish zarur.

Ushbu sho‘ba xodimlariga yuklatiladigan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

Davlat moliyaviy nazorati yakunlari asosida mavjud avtomatlashtirilgan dasturiy majmualarda tizimli aniqlanayotgan xato va kamchiliklarni topish hamda bartaraf etish.

Inson omili bilan bog‘liq moliyaviy xato va kamchiliklarni tizimli ravishda aniqlash va ularni avtomatlashtirilgan dasturlar orqali to‘liq qamrab olishni tashkillashtirish.

Vazirliklar, idoralar va boshqa yuridik shaxslar nazoratida mavjud avtomatlashtirilgan dasturlarning elektron bazalaridan foydalanib, budjet mablag‘lari sarflanishi jarayonida moliyaviy xavflarni baholaydigan hamda muntazam xabar berib boradigan tizimni yaratish va doimiy nazorat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”. 26.12.2013 yil, O‘RQ-360 – son.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi” 30.12.2019 yil, O‘RQ-857-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat kodeksi”. 29.10.2022 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 19.04.2018 y. O‘RQ-163-I-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel O‘RQ-404-son.
6. Alexina L.N. “Problemy adaptatsii buxgalterskogo ucheta v byudjetnyx uchrejdeniyax k usloviyam sovremennoy ekonomiki”, Avtoref. k.e.n., Sankt-Peterburg 2003 g. 17 s.
7. Kachkova O.E. i dr. Organizatsiya ucheta i vnutrennego kontrolya v gosudarstvennyx (munisipalnyx) uchrejdeniyax:// Monografiya// M.: Izdatelstvo “Rusayns”, 2015. 141 s. (256 s.).



8. Mamadjanov I.T. "Voprosy prakticheskogo primeneniya Standarta byudjetnogo ucheta №1 "Uchetnaya politika". "Cpravochnik finansovogo rabotnika", Tashkent-2017. №2(62), 62-68 st.
9. Melnikova E.V. "Razvitie buxgalterskogo ucheta gosudarstvennykh", Michurinsk - naukograd RF, 2010. 39 s.
10. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. //Monografiya//.T.: Iqtisod-moliya. 2016 yil.13-bet.136 bet.
11. Guseynov Ya.B. Teoriya buxgalterskogo ucheta. Uchebnik. Baku: Izdatelstvo "Ekonomicheskij universitet", 2016. 483-str.
12. Do'smurov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya" 2013, 372 b. (476 bet).
13. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. InfoCOM.Uz MCHJ. T.: 2010. 92 b. (192 b).
14. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi. – T.: "Sharq". 2004. 44-bet. (565 bet).
15. Mehmonov S.U. Byudjet hisobi. O'quv qo'llanma." Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent 2012 y. 159-bet.
16. Mehmonov S.U va boshq. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi". Darslik. -Toshkent, "Sano-standart", 2013, 5-bet. (456 bet).
17. Ostonaqulov M. Byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. - T.: Yangi asr avlodi, 2011. 3 bet, (480 b).

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100